

## RUS TILSHUNOSLIGIDA NISBAT KATEGORIYASINING O'RGANILISHI

*Xasanova Saodat Qayimovna*

*PROFI UNIVERSITY Navoiy filiali*

### STUDY OF THE RATIO CATEGORY IN RUSSIAN LINGUISTICS

*Khasanova Saodat Kayimovna*

*PROFI UNIVERSITY Navoi Branch*

### ИЗУЧЕНИЕ КАТЕГОРИИ РАТИО В РУССКОМ ЛИНГВИСТИКЕ

*Xasanova Saodat Kayimovna*

*ПРОФИ УНИВЕРСИТЕТ Навоийский филиал*



[saodat75@inbox.ru](mailto:saodat75@inbox.ru)

<https://orcid.org/0009-0004-1273-2556>

**Annotatsiya.** Butun jahon tilshunoslari qatorida rus tilshunoslari tomonidan ham fe'l va uning kategoriyalari turli jabhalarda o'rganilib kelingan. Jumladan, rus tilshunosi M.Smotriskiy o'zining "Grammatika" asarida rus tili grammatikasini tizimli o'rganishning ilk tadqiqotini boshlab bergan. Bundan tashqari, maqolada bir qator rus olimlarining fe'l va uning kategoriyalariga oid qarashlari haqidagi ma'lumotlar tahliliy o'rganilgan.

**Kalit so'zlar:** grammatika, nisbat kategoriyasi, fe'l tuslanishi, morfologiya, til tarixi.

**Abstract.** Along with world linguists, Russian linguists have studied the verb and its categories in various aspects. In particular, the Russian linguist M. Smotrisky in his work "Grammatika" initiated the first systematic study of the grammar of the Russian language. In addition, the article analyzes the information about the views of a number of Russian scientists regarding the verb and its categories.

**Key words:** grammar, category of voice, verb conjugation, morphology, history of language.

**Аннотация.** Наряду с мировыми лингвистами, российские лингвисты изучали глагол и его категории в различных аспектах. В частности, русский лингвист М.Смотрницкий в своей книге «Грамматика» первыми изучал систематическую грамматику русского языка. Кроме того, в статье анализируются сведения о взглядах ряда российских ученых на глагол и его категории.

**Ключевые слова:** грамматика, категория залога, спряжение глаголов, морфология, история языка.

#### ВВЕДЕНИЕ/KIRISH/INTRODUCTION

Rus tilshunosligida fe'l turkumi gapdagi eng muhim bo'lgan bo'laklardan biri – kesimni shakllantiruvchi turkum sifatida doimo tilshunoslarni qiziqtirib kelgan. Umuman olganda, fe'l turkumini yaxshi o'zlashtirish rus tilidagi morfologik

kategoriyalar, gap qurilishi, so'zlarning birikuvchanlik xususiyati kabi tushunchalarni yaxshi o'zlashtirish shartlaridandir. Bu borada rus olimi A.V.Tekuchevning quyidagi fikrlarini keltirish o'rinli bo'ladi: "fe'l turkumi haqidagi nazariy ma'lumotlarni yaxshi o'zlashtirmasdan turib sodda gap sintaksisi,

og'zaki va yozma shakllarda to'g'ri nutq shakllantirish kabilar haqida o'ylash xato. Hatto imlo qoidalarining aksariyat qismi fe'l turkumi tahsili bilan bevosita bog'liq"<sup>1</sup>. Rus tili grammatikasining o'ziga xosligini va unda fe'l turkumiga oid so'zlarning o'rnini hisobga olgan holda, olimning fikrlariga to'liq qo'shilish mumkin. Fe'l turkumining grammatik kategoriyalari orasida nisbat kategoriyasi rus tilida mulqot qiluvchilar uchun ham, shu tilni o'rganuvchilar uchun ham o'zlashtirilishi qiyinlaridan hisoblanadi. Shu tufayli bu kategoriyani o'rganish rus tilshunosligining barcha davrlarida ham dolzarb masalalardan biri bo'lib kelgan.

Rus grammatikasida uzoq vaqtlardan buyon munozaralarga sabab bo'lib kelayotgan, yagona nazariy yechimga ega bo'lmagan hodisalar sirasiga nisbat kategoriyasini ham kiritish mumkin. Fe'l turkumining xususiyatlari, uni boshqa turkum so'zlaridan farqlab turuvchi jihatlar ilk bor M.Smotriskiyning rus tili grammatikasiga oid asarida ochib berildi. Bu asarda fe'l turkumiga doir grammatik kategoriyalar ham birinchi marta ajratildi. Shu jumladan, fe'l nisbatlari grammatik kategoriya maqomida tekshirildi <sup>2</sup>. M.Smotriskiyning "Grammatika" asarida morfologik va sintaktik xususiyatlar batafsil yoritilmagan bo'lsa-da, rus tili grammatikasiga oid tizimlashtirilgan ilk manbalardan biri edi. Shu nuqtai nazardan "Grammatika"da fe'l nisbatlari grammatik kategoriya sifatida talqin qilinganligi keyingi davrlarda amalga oshirilgan izlanishlar uchun tamal toshi bo'lib xizmat qildi. Chunki, M.Smotriskiydan keyingi davrlarda yaratilgan rus grammatikasiga oid asarlarda fe'l nisbatlari muhim kategoriya sifatida tavsiflandi.

Rus ilm-fanida o'chmas iz qoldirgan M.V.Lomonosov tilshunoslikka doir muhim asarlaridan biri bo'lgan "Rus grammatikasi"da fe'l nisbatlariga doir zaruriy fikrlarini bildirib o'tgan. Olim rus tilidagi fe'l nisbatlarini oltita turga ajratadi: aniq (действительный), majhul (страдательный), o'zlik (возвратный), birgalik, bog'liqlik (взаимный), oraliq (средний) va umumiy (общий) kabi<sup>3</sup>. Bunda M.Lomonosov nisbat shakllarining fe'l lug'aviy ma'nosi va sintaktik xususiyatlariga

ta'siriga asosiy e'tiborni qaratgan edi. Bu nisbat shakllarining nomlanishida ham o'z aksini topgan, deyishimiz mumkin. Masalan, o'zlik nisbatning *возвратный* deb atalishiga sabab sifatida harakatning obyektga qaytib kelishi, ya'ni harakatni bajaruvchi ham, harakat qaratilgan narsa ham obyektning o'zi ekanligi bilan izohlash mumkin. Rus tilida *возвратный залог* «себя» olmoshi yordamida aniqlanishi mumkin. *Мальчик умеет одеваться самостоятельно* (Бола мустақил ўзи кийина олади) gapida shunday holatni ko'rishimiz mumkin. Gapning o'zbek tiliga tarjimasida ham fe'l o'zlik nisbat shakllidagi bu o'rinda tarjima transformatsiyasiga hojat yo'q ekanligini ko'rsatadi. Shu bilan birga rus tilidagi *взаимный залог* harakatning bir nechta shaxs yoki narsa tomonidan birga bajarilishi va bir-biriga nisbatlanishi bilan ajralib turadi. Shuning uchun ham nisbat nomi *взаимный* (o'zaro bog'liq) deb nomlangan. Rus tilida *взаимный залог* yuzaga chiqishi uchun «взаимно», «друг на друга» kabi til birliklari o'ziga xos vosita vazifasini bajaradi. *Мы поддерживаем друг друга* gapida *взаимный залог* shu vositalardan biri bilan hosil qilingan. Bu gapning o'zbek tiliga tarjimasini aniq nisbat vositasida amalga oshiriladi: *Biz bir-birimizni qo'llab-quvvatlaymiz*. Ta'kidlash lozimki, rus tilidagi *взаимный залог* o'zbek tilidagi birgalik nisbatga to'la mos kelmaydi. Chunki, *взаимный залог* uchun harakatning birgalikda bajarilishi yetarli emas. Bunda harakat ikki tomonga o'zaro yo'nalgan ham bo'lishi lozim. O'zbek tilida harakatning birgalikda bajarilganligi (yoki bajarilmaganligi) birgalik nisbatni hosil qilish uchun yetarli bo'ladi. Shu tufayli *взаимный залог* nomi M.Lomonosov tomonidan juda to'g'ri tanlangan, deb xulosa chiqarishimiz mumkin. Bu fikr rus tilidagi barcha nisbat shakllari nomiga birdek taalluqli. Nisbat shakllarining fe'l birikuvchanligiga ta'siri ham yuqorida keltirilgan misollarda o'z aksini topdi. Zero, nisbat shakllarining muayyan so'z va birikmalarni talab qilishi haqidagi fikrlar fe'l birikuvchanligiga nisbatning ta'sirini ko'rsatadi. M.Lomonosov tomonidan XVIII asrda tilshunoslikka oid taklif etilgan g'oyalar va

<sup>1</sup>Текучев А.В. Методика преподавания русского языка в средней школе. – Москва: Просвещение, 1970. – С.229-230. – 605 с.

<sup>2</sup>Смотрицкий М. Грамматика. – Москва: Печатный двор, 1646. – 378 с.

<sup>3</sup> Ломоносов М.В. Российская грамматика. – Санкт-Петербург: Типография Императорской Академии наук, 1755. – 212 с.

chiqarilgan xulosalar hamon o'z ahamiyatini yo'qotmagan.

XIX asr o'rtalariga kelib yaratilgan rus tili grammatikasiga doir darslik, qo'llanma va tadqiqotlarda nisbatlar fe'l lug'aviy ma'nosiga va birikuvchanlik xususiyatlariga ta'sir qilishi, umuman olganda, harakat va uning bajaruvchisi orasidagi munosabatni ifodalovchi grammatik kategoriya ekanligi nuqtai nazaridan tahlil qilindi. Fe'l nisbatlari soni ham M.Lomonosov taklif qilganidek, oltitaligicha qoldi. Shuni ta'kidlash lozimki, fe'l nisbatlari soni M.Lomonosov davridan buyon o'zgarmagan bo'lsa-da, ularning mohiyati, fe'lga qo'shadigan semantik xususiyatlariga yondashuvda ayrim o'zgarishlar kuzatildi, albatta. Bunda oraliq (средний) va umumiy (общий) nisbatlarni aniqlashdagi noaniqliklarga nazariy yechimlar taklif qilindi. Masalan, "umumiy nisbat (общий залог) o'zlik va aniq nisbat shakllari ifodalovchi ma'nolarni umumlashtirganligi uchun ham shunday nomlanadi"<sup>4</sup>. XX asr boshlarigacha ham fe'l nisbatlari sonida o'zgarish kuzatilmadi. Jumladan, 1913-yilda V.A.Bogorodskiy tomonidan yaratilgan "Rus umumiy grammatika kursi"da ham fe'l nisbatlari soni oltita edi<sup>5</sup>. Olim fe'lning nisbat shakllari uning semantik jihatlariga ko'ra tasniflanishi lozim deb hisoblaydi. Ana shundagina – *ся* shakli bilan yakunlanadigan fe'llarning ba'zan o'zlik nisbat (*возвратный залог*), ba'zan oraliq nisbat (*средний залог*) hisoblanishi, bu orqali mavhumlik kelib chiqishiga chek qo'yilishi mumkin edi. Ammo ba'zi fe'llarning qaysi nisbat shaklida ekanligi qamrovga, ya'ni birikayotgan so'zlariga bog'liq holda aniqlanishiga doir grammatik qarashlar ham mavjud. Bu qaysi nisbat shaklida ekanligi nutqdan tashqarida aniq bo'lmagan fe'llar har qanday til leksikasida mavjud ekanligini ko'rsatadi. V.A.Bogorodskiyning fe'l nisbatlarini ajratishga qaratilgan fikrlari uning shakliy tomoniga, ya'ni fe'lga qanday qo'shimcha qo'shilayotganligiga ko'ra yondashuvni anglatar edi. Albatta, har bir

nisbatning (o'zbek tilida aniq nisbat bundan mustasno) o'ziga xos morfologik shakli mavjud. Masalan, rus tilida aniq nisbat shakli zamonlarga ko'ra farqlanadi va *-ю, -у, -ем, -л, -ла, -ло, -ли* qo'shimchalari yordamida shakllantiriladi. Majhul nisbat esa *-ется/-ся, -ются/-ют, -лся/-лась, -лось/-лись* kabi qo'shimchalar orqali hosil qilinadi. Ammo nisbat kategoriyasini faqat shakliy tomoniga asoslanib guruhlantirish, uning mohiyati haqida xulosalar chiqarish xato fikr bo'ladi, nazarimizda. V.A.Bogorodskiyning fikrlari shu jihati bilan xato edi. Keyingi davr tadqiqotlari buni isbotladi.

Rus olimi A.X.Vostokovning fikriga ko'ra, fe'l nisbatlari shakliy tomondan emas (ya'ni qanday qo'shimchalar bilan hosil qilinishi), balki fe'lga qo'shadigan ma'no munosabatiga ko'ra farqlanishi lozim<sup>6</sup>. Bu jarayonda fe'lning boshqa til birliklariga birikishi ham muhim sanaladi. Chunki, birgina fe'l qanday so'zga birikishiga ko'ra turli ma'no ifodalashi, bunda fe'l nisbatlarining ta'siri ham sezilarli darajada bo'lishi mumkin. A.X.Vostokovning fikriga ko'ra, "gap tarkibida qo'llangan o'zlik nisbat shaklidagi fe'lga birikkan obyektini ifodalovchi so'zning olinishi bu fe'lni oraliq nisbatga aylantiradi"<sup>7</sup>. Umuman olganda, bu kabi holat o'zbek tilidagi fe'l nisbatlarida ham kuzatiladi. Masalan, *berilmoq* fe'lning o'zlik yoki majhul nisbat shaklida ekanligi u tobelantirib kelayotgan so'zlarga bevosita bog'liq bo'ladi. *G'oliblarga mukofot berildi* gapida bajaruvchi aniq bo'lmaganligi tufayli majhul nisbat, *Hamma futbol tomoshasiga berildi* gapida bajaruvchining aniqligi va gap tarkibida ega vazifasida kelishi fe'l nisbati o'zlik ekanligini ko'rsatadi. Shunga ko'ra A.X.Vostokov aniq va oraliq nisbatlarni asosiy nisbatlar sifatida qayd qiladi va qolgan nisbat shakllari qaysidir jihati bilan ularga bog'liq deb hisoblaydi. A.X.Vostokovning fikrlarini qo'llab-quvvatlagan G.Pavskiy umumiy leksik-grammatik xususiyatga ega bo'lgan uch xil nisbat turini ajratadi: aniq, majhul va oraliq nisbat<sup>8</sup>. Olim rus tilidagi fe'l

<sup>4</sup> Греч Н.И. Практическая русская грамматика. – Санкт-Петербург: Типография Императорского Санктпетербургского Воспитательного Дома, 1827. – С.114. – 578 с.

<sup>5</sup> Богородский В.А. Общий курс русской грамматики. – Казань: Типография Императорского Университета, 1913. – 552 с.

<sup>6</sup> Востоков А.Х. Сокращенная русская грамматика. – Санкт-Петербург: Департамент народного просвещения, 1831. – 207 с.

<sup>7</sup> Аглеев И.А. Категория залога русского глагола в историческом освещении//Студенческий научный форум – 2011. – С.171-176.

<sup>8</sup> Копейкин К.П. Протоиерей Герасим Павский (1787-1863): жизнь и труды // Христианское чтение. 2005. №24. – С.67-93.

nisbatlari tadqiqiga doir ko'zga ko'rinarli o'zgarishlarni amaliyotga kiritdi. Xususan, G.Pavskiy tomonidan ayrim qo'shimchalar orqali hosil qilinadigan fe'l nisbatlari ifodalaydigan ma'nolar yanada aniqlashtirildi. Umuman olganda, G.Pavskiy rus tilidagi fe'l nisbatlarining semantik jihatlarini yanada mukammallashtirdi. Olimning fe'l nisbatlari borasidagi bu izlanishlari keyingi davr tadqiqotlarida ham bu kategoriyaning semantik jihatlariga ko'proq e'tibor qaratish kerakligini ko'rsatdi.

Rus tilidagi fe'l nisbatlari tahlili shuni ko'rsatadiki, dastlabki bosqichda nisbat kategoriyasi shakliy tomondan o'rganildi. Bunda fe'l nisbatlarining qanday qo'shimchalar bilan hosil qilinganligi ularni tasniflashda asos vazifasini bajardi. XIX asr o'rtalaridan boshlab fe'l nisbatlari rus tilshunosligida qurilmaning leksik-semantik xususiyatlariga, fe'lning birikuvchanlik xususiyatiga ta'siri masalasiga e'tibor qaratila boshlandi. Boshqacha aytganda, fe'l nisbatlarini guruhlashtirishda uning semantik xususiyatlari markaziy o'ringa olib chiqildi. Zamonaviy rus tilshunosligida fe'l nisbatlari funksional-semantik maydon nuqtayi nazaridan tahlil qilina boshlandi. Bunday tahlilda grammatik kategoriya unsurlarining maydonda joylashishida turli asoslarga tayanildi. Fe'l nisbatlarining qo'llanish chastotasi, fe'l semantikasiga va birikish qobiliyatiga ta'siri kabilar shular jumlasidandir. Fe'l nisbatlarining ko'pqirraliligi, turli tillarda xususiyatlarining farqlanishi ularni qiyosiy-tipologik jihatdan tekshirish muhimligini ko'rsatdi. Bunday tadqiqotlar ularning turli tillarga tarjimasini sifatining oshishiga yordam beradi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Аглеев И.А. Категория залога русского глагола в историческом освещении // Студенческий научный форум – 2011. – С.171-176.
2. Богородский В.А. Общий курс русской грамматики. – Казань: Типография Императорского Университета, 1913. – 552 с.
3. Большая российская энциклопедия: в 35 томах. Том 1. – Москва:

Большая российская энциклопедия, 2005. – С.457. 766 с.

4. Бондаренко А.В. (под ред.) Проблемы функциональной грамматики. Полевые структуры. – Санкт-Петербург: Наука, 2005. – С.10. – 480 с.

5. Востоков А.Х. Сокращенная русская грамматика. – Санкт-Петербург: Департамент народного просвещения, 1831. – 207 с.

6. Греч Н.И. Практическая русская грамматика. – Санкт-Петербург: Типография Императорского Санктпетербургского Воспитательного Дома, 1827. – С.114. – 578 с.

7. Даль В.И., Тольковый словарь живого великорусского языка: в 4 ч. – Москва: Изд. общ-ва любителей Российской словесности, 1863. – 627 с.

8. Копейкин К.П. Протоиерей Герасим Павский (1787-1863): жизнь и труды // Христианское чтение. 2005. №24. – С.67-93.

9. Котиева А.А. Классификация залога и наклонения в современном английском и русском языках // Научно-образовательный журнал для студентов и преподавателей. StudNet, №11, 2020. – С.171-174.

10. Ломоносов М.В. Российская грамматика. – Санкт-Петербург: Типография Императорской Академии наук, 1755. – 212 с.

11. Некрасов Н.П. О значении форм русского глагола. – Санкт-Петербург: И.Паульсон и К°, 1865. – 319 с.

12. Потебня А.А. Из записок по русской грамматике. – Москва - Ленинград, 1941. – С.2-5. – 341 с.

13. Смотрицкий М. Грамматика. – Москва: Печатный двор, 1646. – 378 с.

14. Текучев А.В. Методика преподавания русского языка в средней школе. – Москва: Просвещение, 1970. – С.229-230. – 605 с.

15. Теория функциональной грамматики. Персональность. Залоговость/отв. ред. А.В. Бондарко. – Санкт-Петербург: Наука, 1991. – С.128. – 369 с.